



**OLIY TA'LIMDA PEDAGOG KADRLARINING KASBIY
MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH**
Jumaniyozova T.A., Baxtiyarova A.M.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Oliy ta'lilda sohasida ta'lim beruvchi pedagoglar har kuni ma'ruza va amaliyot darslarda o'zi o'qitadigan talabalar bilan uchrashadi. Dars jarayonida pedagog talabalar bilan bevosita muloqat olib boradi, ya'ni savol javob qiladi, talabalar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni to'g'ri bajarilganlarini ma'qullaydi, talabalar bilimini baholaydi, nojo'ya hatti-harakatlari uchun tanbeh berib, talabani to'g'ri yo'lga soladi. Albatta bunda pedagog xodimlarning fikr-muloxazalarida nisbiylik, subyektivlik a'lomatlari mavjud bo'lishi tabiiydir. Pedagog talabalarning barchasiga aynan bir xilda to'g'ri munosabatda bo'lishi bir muncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin, lekin u barcha talabalarga nisbatan xolis niyatli yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barchani ishonchi komil bo'lmog'i darkor. Auditoriyada pedagogda yaxshi va yomon talaba bor degan ta'assurot uyg'onmasligi zarur.

Pedagogning obro'si uning chuqur bilimga, yuksak ahloqiy fazilatlarga, hayot tajribasiga, ilmiy taddiqot va jamoat ishlarida faol ishtirok etishiga, orttirilgan, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan ta'sir nufuziga ega bo'lishidir. Pedagogik faoliyat o'z mohiyati bo'yicha ijodiy xarakterda bo'lib, pedagog oldida biron bir muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj seziladi. Pedagoglik faoliyati xuddi shunday xususiyatga ega pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati, pedagogik faoliyatining maqsadi va xarakteri bilan bog'liq holda rivojlanib boradi. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyo qarashini, e'tiqodini, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiyl maqsadga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalar yechish jarayonidir. Pedagoglar faoliyatlaridagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish chorasini topa olishlarida ifodalangan bo'ladi.

Pedagogik ijodkorlik manbai bu pedagogik tajriba hisoblanadi. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boy bo'lib, o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, pedagoglar ta'lim-tarbiyaning yangi, samarali yo'l va yechimlarini topa bilishida deb bilamiz. Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llanadigan ish shakli va usullari, uslub va vositalardan kelib chiqadi. Ular vositasida o'quv-tarbiyaviy ishlarni eng yuqori natijalariga erishiladi. Ilg'or pedagogik tajribani o'rghanish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish, o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritish, o'quvchilarining bilim faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modelllashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi.



Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatlil o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan tadqiqotchilik ko'nikma malakalariga ham ega bo'lishi zarur.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti pedagogni ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishini taqozo etadi. Bu ahloqiy e'tiqod pedagogning dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarda, talabalar va boshqa xodimlar bilan munosabatlarida, muomalasida, kundalik turmush tarzida o'zining shaxsiy namunasi bilan ahloqiy ta'sir o'tkazilishida ko'zga tashlanadi. Pedagogik etikaning asosiy tushunchalari umuminsoniy ahloq kategoriylariga to'g'ri keladigan holdagina ularni pedagog faoliyati bilan bog'liq tarzda bir qadar aniqlasa bo'ladi.

Shuning uchun hozirgi kunda mustaqil davlatimizning oliy ta'lif tizimida ishlaydigan pedagog pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon, milliy madaniyatimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodi yuqori bo'lgan shaxs, ihtisosligiga doir bilimlari, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek, nazariy ilmlarni mukammal egallagan, erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i zarur.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Gulboyev A. T. X. Ta'limda pedagogik qadriyatlar //Scientific progress. - 2021. - T. 2. - №. 7. - C. 349-355.
2. Гулбоев А. Т. Аспекты и особенности целостного педагогического процесса //Вопросы науки и образования. - 2021. -№. 10 (135). - С. 29-32.
3. Гулбоев А. Т. Педагогик ташхис воспитасида укитувчилар малакасини узлуксиз ошириш.. Педагогика. фан. ном. - 2010.
4. Гулбоев А. Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов //Вестник науки и образования. - 2020. - №. 5-2 (83). - С. 9-11.

